

2022-yil "26" 8 klop

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi 117-sod "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, keyingi o'rnlarda "Ijrochi" deb yuritiluvchi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi nomidan ustav asosida ish yuritiluvchi direktor I.Azimov bir tomonidan, keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiluvchi

Hajotchi Tijorat Yozuvchisi  
(tashkilot nomi)

ikkinchi tomonidan, keyingi o'rnlarda birgalikda "Tomonlar" deb yuritiluvchilar o'rtasida mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

### I. Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Ijrochi Buyurtmachining buyurtmasiga binoan quyidagi ishni (xizmatni) bajarish, Buyurtmachi esa bajarilgan ish (xizmat) uchun haq to'lash majburiyatini oladi:

No	Ish (xizmat) nomi	O'chov birligi	Soni	Narxi (so'm)	Miqdori	Aksiz solig'i	QQS	Jami hisoblangan miqdor (so'm)
1.	Buyurtmachi xodimlarini o'zbek adabiy tili me'yorlari, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini va imlosi, davlat tilida ish yuritish asoslari bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish (an'anaviy)	nafar	1	1 204 500		Aksiz solig'isiz	QQSsiz	1204500
<b>Jami:</b>								1204500

1.2. O'qitish va malaka oshirish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejalarini va malaka oshirish dasturlari asosida o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq (jami 144 soatlik) olib boriladi.

### II. Shartnomaning umumiy bahosi va hisob-kitob tartibi

2.1. Shartnomaning umumiy bahosi QQS siz 1204500 (1204500) so'm tashkil qildi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma umumiy bahosining 30 foizini shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab 10 kun muddatda Ijrochining hisob raqamiga oldindan o'tkazib beradi.

2.3. Buyurtmachi shartnoma umumiy bahosining qolgan 70 foizini Ijrochi tomonidan hisob-faktura va bajarilgan ishlari haqidagi dalolatnomaga berilgan kundan boshlab 10 kun muddatda Ijrochining hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoniga muvofiq mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori o'zgarganda, Buyurtmachi xodimini o'qitish va malaka oshirish uchun to'lanadigan haq miqdori tomonlar o'rtasida tuziladigan ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv asosida o'zgartiriladi.

2.5. Tomonlar o'rtasida tasdiqlangan o'qitish va malaka oshirish jadvaliga muvofiq, Buyurtmachi xodimi kurs boshlangan kundan boshlab 10 kun mobaynida o'qishga kelmag'an taqdirda, Ijrochi hisobiga o'tkazilgan mablag' Buyurtmachiga qaytarilmaydi.

### III. Ijrochining majburiyatları

3.1. Ijrochi mazkur shartnoma doirasida quyidagilarga majbur:

Sifat jihatidan yuqori darajada mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur o'quv, uslubiy va moddiy-texnik bazani tashkil etish;

o'qitish va malaka oshirish yo'naliishlari bo'yicha zarur axborot-ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ta'lif jarayoni uchun zamonaviy innovatsion pedagogik, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish;

Buyurtmachi xodimini Ijrochining ichki tartib-qoidalari bilan tanishtirish;

kurs yakunida 55 (ellik besh) va undan yuqori ball to'plagan tinglovchilarga davlat na'munasidagi sertifikat berish, 54 (ellik to'rt) va undan past ball to'plagan tinglovchilarga kursda o'qiganligi haqida ma'lumotnomasi taqdim qilish.

### IV. Buyurtmachining majburiyatları

4.1. Buyurtmachi mazkur shartnoma doirasida quyidagilarga majbur:

Tomonlar o'rtasida tasdiqlangan o'qitish va malaka oshirish jadvalida nazarda tutilgan sondagi tinglovchilarni o'z muddatida o'qishga jaib etilishini ta'minlash;

o'z xodimlarining kurslarga uzrli sabablarsiz muntazam qatnashishlarini ta'minlash;

mazkur shartnomada ko'rsatilgan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish.

## V. Tomonlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiyatlar

5.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

5.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

5.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon sharhnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin

## VI. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Tomonlar sharhnomasi majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

6.2. Sharhnomasi bo'yicha ishlarni (xizmatlarni) o'z vaqtida bajarmaganlik uchun Ijrochi Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilmagan to'lov miqdorining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo bunda penyaning umumiyligi summasi to'lanmagan to'lov miqdorining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

6.3. Bajarilgan ishlarni (xizmatlarni) uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmaganlik uchun Buyurtmachi Ijrochiga kechiktirilgan har bir kun uchun amalga oshirilmagan to'lov miqdorining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo bunda penyaning umumiyligi summasi to'lanmagan to'lov miqdorining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

Penyani to'lash sharhnomasi majburiyatlarini buzgan tomonni ishni (xizmatni) bajarmaslik yoki to'lovni amalga oshirmaslik majburiyatidan ozod etmaydi.

## VII. Nizolarni hal qilish tartibi

7.1. Tomonlar o'rtaida ushbu sharhnomasi bo'yicha nizolar va kelishmovchiliklar ular o'rtaida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal qilinadi.

7.2. Agar nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilib bo'lmasa, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud orqali hal qilinadi.

## VIII. Fors-major holatlari

8.1. Tomonlar xohish-irodasidan tashqari yuzaga keladigan oldindan bilib bo'lmaydigan va oldini olish imkoniyati bo'lmagan fors-major (yong'in, suv toshqini, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar) holatlarda tomonlar majburiyat bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

8.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida tomonlar ushbu holatlar yuzaga kelgandan so'ng darhol bir-birlarini xabardor qilishlari shart. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining ishonchliligi vakolatli tashkilotning tegishli hujjati bilan tasdiqlanishi kerak, bunday holda ushbu sharhnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati fors-major holati davomida qoldiriladi.

## IX. Yakuniy qoidalar

9.1. Ijrochining ichki tartib-qoidalariiga Buyurtmachi xodimi tomonidan amal qilinmagan taqdirda, Ijrochi tomonidan Buyurtmachi yozma ravishda ogohlantiriladi hamda Buyurtmachi xodimi kursdan chetlashtiriladi.

9.2. Sharhnomani muddatidan oldin bekor qilish O'zbekiston Respublikasining amalda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

9.3. Mazkur sharhnomasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan paytdan kuchga kiradi hamda 2022-yilning 31-dekabrigacha amal qiladi. 9.4. Ushbu sharhnomasi har ikki tomon uchun bittadan ikki nusxada tuzilgan bo'lib, har ikki nusxa bir xil yuridik kuchga ega.

## X. Tomonlarning revvizitlari:

### IJROCHI:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi  
Manzil: Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib, 103  
h/r: 20210000705257238001  
INN: 307387233, OKED: 85590

Bank nomi: ATB Universalbank Toshkent shahar filiali, MFO: 00996  
Tel: (95) 500-77-17

M.O.:

Yuriskonsult

I. Azimov

S. Mirazimov



### BUYURTMACHI:

Hojibaiyev Yulduz Xorun Mirzo  
O'g'osi 160, A. Karboevi  
W/F: 400122860182187011204018001  
Z/HH: 200752665 OKONX: 97600  
Markazeli Bank rosi. u.  
Mablo: 00014



M.O.:

J. Omonov

Yulduz Xorun Mirzo  
J. Omonov